

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat
Universiteti
Filologiya fakulteti o'zbek tili bo'limi*

KURS ISHI

Fan: Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti

Topshiruvchi: Allamberganova Muqaddas.

Qabullovchi: Dusenbayev O.

Nukus - 2013

XX asr boshlarida Turkiston milliy matbuoti

Reja:

I.Kirish:

Turkiston davriy matbuoti tarixi.Jadid matbuotchiligi.

II.Asosiy qism:

a) I.G'aspiralining "Tarjimon " gazetasi.

b) "Taraqqiy" gazetasining yaratilishi.Gazeta ustida ishlangan tadqiqotlar.

d) Behbudiyning publisistik faoliyati."Samarqand" gazetasi.

e)Turkistonda nashr etilgan milliy jurnallar.

III.Xulosa.

IV.Foydalanilgan adabiyotlar.

Matbuot jadidchilik g'oyalarining tarqalishi va milliy uyg'onish harakatining vujudga kelishida g'oyat katta ahamiyatga molik bo'ldi. 1905 yildan keyin chiqqan boshlagan jadid gazetalarning qaldirg'ochi "Taraqqiy" edi. Bu gazeta 1905 yilda e'tiboran chiqqan, ammo mushtariysizligi orqasida to'xtagan Ivan Geyerning gazetasi o'rniga haftada ikki marta chop etilgan. Ulamolarning xalq o'rtasidagi obro'-e'tiborini tushirishga harakat qilgan, din, millat, vatan nomidan aytilgan fikrlari bilan yoshlarni milliy ozodlik va milliy madaniyat uchun kurashga chaqirgan bu gazeta tez fursatda shuhrat topdi va shu sababdan tez orada yopildi. 1906 yil sentyabrdan boshlab "Taraqqiy" ning doimiy mualliflaridan biri Munavvarqori "Xurshid" gazetasini nashr etishni boshladi. Haftada bir marta chiqadigan bu "Ilmiy, siyosiy, adabiy, maishiy", "Jaridayi islomiya" islom dinini targ'ib qilish bilan birga "Turkiston viloyatining gazetasi" ga qarshi kurashib, uning "buzuq harakati" ni (Avloniy) ommaga tushuntirib bordi.

Xuddi shu vaqtda "Shuhrat", "Osiyo" gazetalari ham faoliyat ko'rsatdilar. Jadidlar millatning boshqalar tomonidan "yutilishi"ning asosiy sababini ilmsizlikda ko'rdilar. Shuning uchun ham ular yangi usuldagi maktab uchun kurash shiori ustiga Rusiya, Misr va Turkiyaga qadar talabalar yuborish masalasini o'rtaga tashlaydi. Davlat va hukumat ishlariga kadrlar yetkazish uchun Rusiyaga, diniy ilmlarni egallab kelish uchun esa, Misrga talabalar yuborish masalasi ular og'zidan matbuot sahifalariga ko'chdi.

1912 yildan boshlab jadidchilik harakati butun o'lka bo'ylab qanot yozadi. Xalqni ma'rifatli va madaniyatli qilish orqali, milliy ozodlikka olib chiqish masalasi esa Samarqand, Buxoro, Qo'qon kabi shaharlarni ham o'zining ta'sir doirasiga tortadi. 1913 yildan boshlab bu shaharlarda "Samarqand", "Turon", "Buxoroi sharif", "Sadoi Farg'ona", Toshkentda esa "Sadoi Turkiston" gazetalari chiqqan boshlaydi. Behbudiy asos solgan "Samarqand" gazetasi, masalan, mahalliy savdogarlarni tijorat ilmini bilmaslikda, rus-tuzem maktablarida o'qigan musulmonlarni esa millat qayg'usidan uzoqlikda ayblab, mushtariylarni boyish ilmini egallashga chaqiradi. U, umuman xalqning chor amaldorlari "poshnasi tagida" qolganligining sabablarini ilmsizlikdan, iste'dodsizlikdan ko'rib, yozadi: "Biz Rusiya tavbaasi va grajdanimiz; ruslar ila baravar huquq, madaniyat va mulkiyaga molikmiz. Ammo iste'dodligimizga taassuf

qilurmiz.Bank va savodxonalar,sud mahkamalari,notarius,temir yo'l,xullas,zamonning paydo qilgan har bir yangi narsalariga muhtoj bo'lsak,avvalgi qadamda ruscha bilmoq lozim kelur..."

Behbudiy boshliq jadidlar yuqorida tilga olingan nashrlar,shuningdek,"Al-Isloh" jurnali orqali vatandoshlarini ruslar bilan teng huquqli bo'lish uchun ilm olishga,rus tilini o'zlashtirishga chaqirdilar.

Turkiston jadidlari Rusiya Qrim tatarlari bilan yaqin aloqa o'rnatib,o'zlarining ma'rifiy dasturlarini matbuot orqali amalga oshirishga katta kuch sarflaydilar.Ularning sa'y - harakatlari bilan shu yillari publitsistika ayniqsa,o'sdi.Birgina Behbudiyning o'zi turli mavzulardagi 300 dan ziyod maqola e'lon qildi.Mirmuhsin Shermuhammedov esa 1914 yilning o'zidayoq matbuotda yuzga yaqin maqola bilan chiqdi.Agar bu ro'yxatga Munavvarqori,Avloniy,Cho'lpon,Hamza va boshqa jadid jurnalistlarining nomlarini kiritsak,o'ninchi yillarda o'zbek publitsistikasi shakllanibgina qolmay,balki jamiyatning ijtimoiy hayotiga katta ta'sir o'tkazgani ham ravshanlashadi.

Jadid publitsistikasining mavzu doirasi bag'oyat kengdir.Agar "Xurshid" gazetasini varaqlasak,unda "Yaponiyada islom","Turkiyada yangi maktab va madrasa","Peterburgda ijtimoiy musulmin" singari islom dinining dunyo bo'ylab tomir otayotgani haqidagi maqolalarga duch kelamiz.Bu maqolalarning maqsad-mohiyati tushunarli bo'lishi uchun Fansurullobek Xudoyorovning "Jaridayi Islomiya" ning ikkinchi soniga yozgan maqolasiga nazar tashlash lozim.Muallif "Xurshid" gazetasi to'g'risida so'zlab bunday yozgan:"Dunyodagi musulmonlarni bir-biri bilan tanishtirib turadi,yangi maktab va madrasa islohi yo'lida urinadi va ularga rahbarlik qiladi.Bu – "Xurshid", kitoblarni isloh qilaylik,ittifoq tuzaylik,butun turk millatlarining tillarini birlashtiraylik,shariat yo'lidan chiqmaylik".

"Xurshid" mushtariylarni boshqa xorijiy mamlakatlardagi musulmon xalqlari hayoti bilan tanishtirar ekan,bu xalqlar bilan yaqinlashish va kelajakda har qanday kishanlarni yakson qilishga qodir do'stlikni barpo etish g'oyasini olg'a surdi. Umuman, jadidchilikning peshqadam arboblari "Tavahhudiya lisoniya" tarafdorlari bo'lib,ular turkiy tillarni birlashtirish g'oyasini o'z maqolalarida izchil ravishda tashviq qildilar.O'zbek jadidchilik harakatining ikki rahbari- Behbudiy va Munavvarqori bir-

birlaridan bexabar holda “Haq olinur,berilmas!” degan shor bilan chiqib,xalqni bo'lajak muxtor Turkikston jumhuriyatini barpo etishga tayyorlab bordilar.Behbudiy “Yoshlarga murojaat”ida “Din va millatga xizmat ilm va aqcha bilan bo'lur”,deb ochiqdan-ochiq aytdi va shundan keyingina vatandoshlarini boyishga undaganligining sabablari ma'lum bo'ldi.Avloniy “Jaholot” va “Safohat balosi”,Hamza ”Faqirlik nimadan hosil o'lur”,Mirmuhsin Shermuhammedov “Buxoro mikroblari” singari maqolalarida xalqning ruhiy va aqliy salohiyatini bo'g'ib kelgan milliy muhitdagi illatlarni qoralaydi.

Jadid matbuotchililgi

Jadid matbuotchiligi 1905 yildan keyin 17-oktyabr manifesti bergan ma'lum erkinliklar samarasi sifatida maydonga keldi.

Biroq bunda:

- 1) Turkistondagi mavjud o'zbekcha nashr – “Turkiston viloyatining gazetisi”;
- 2) Usmonli Turk,Kavkaz,Volga bo'yi matbuotchiligining ham roli katta bo'ldi

Turkiston matbuoti umumrusiya musulmon matbuoti bilan qadam-baqadam bordi,o'lka turmushi milliy taraqqiyot bilan bog'liq masalalarni ko'tarib chiqdi va hal qilishga urindi.Milliy adabiyotning shakllanishi hamda taraqqiy qilishiga munosib hissa qo'shdi.

Turkiston davriy matbuoti tarixidan

Turkistonda davriy matbuot aslida jadidlardan ilgariroq 1870-yilda paydo bo'ldi va u o'lkaga kirib kelgan Rusiya hukumatining harbiy istilochilik siyosatiga xizmat qildi.

Tarixi quyidagicha edi:

1867-yil 14-iyulda Toshkentda Turkiston harbiy okurugi shtabi qoshida harbiy hujjatlarni lozim nusxada ko'paytirish maqsadida bosmaxona tashkil qilinadi.1868-yilda uni o'rtacha hajmdagi kitob chiqarishga moslashtiradilar.1869-yili harbiy vazir D.A.Milyutin “Turkestanskiye vedomosti” gazetasini chiqarishga ruxsat beradi.Shu tariqa,1870-yilning 28-aprelidan boshlab Toshkentda rus tilida gazeta chiqa boshlaydi.Shu yili 17 soni,1871-yilda 48,1872-yilda 51 soni chiqqani ma'lum.Dastlab uni birinchi yili general-gubernator fon-Kaufmannning shaxsan o'zi boshqargan.1874-yildagina polkovnik N.A.Mayev rasman muharrir qilib tayinlanadi.Shundan to 1917-yilga qadar gazeta okrug harbiy shtabi bosmaxonasida bosilib keldi.Darvoqe,bu bosmaxona 1918-yil yanvaridan Sovet harbiy komissariyati ixtiyoriga o'tdi.Xullas, bu bosmaxonaning peshonasiga faqat harbiylarga

xizmat qilish bitilgan ekan.O'zbek tilidagi ilk gazeta o'sha 1870-yilning o'zidayoq "Turkestanskije vedomosti" chop etila boshlaganidan so'ng oradan 2 oy o'tgach,ushbu gazetaga ilova sifatida chiqarila boshlaydi.Gazetaga 1881-yilning 20-noyabriga qadar Shohimardon Ibrohimov,so'ng Hasan Chanishev muharrirlik qildilar.1883-yildan esa,gazeta mustaqil bo'ladi va unga muharrir etib Turkiston general – gubernatori M.G.Chernyayevning 27-son buyrug'I bilan Toshkent o'qituvchilar seminariyasining direktori N.Ostroumov tayinlanadi va u 1917 yil fevral voqealariga qadar ishlaydi.

N.P.Ostroumov (1846-1930) Qozon Diniy akademiyasida mashhur missioner N,Ilminskiy (1822-1891) qo'lida o'qigan.Sharq tillaridan,xususan turkiy tillardan yaxshigina xabardor,lekin zabt etilgan o'lkalarni ruslashtirishni hayotining bosh g'oyasi hisoblagan,asosiy shoviniist edi.Shu sababli,gazeta sahifalarida rus ilm-fani va madaniyati zo'r berib targ'ib-tashviq etildi.Rusiya shaharlariga sayohatga borgan turkistonliklarning safar taassurotlari muntazam suratda berib borildi.Gazeta atrofida mahalliy qalamkashlardan bir davra tashkil qilindi.Bu qalamkashlar rusiya tarixi madaniyatiga hamdu-sano o'qidilar,ruslardan o'rnak olishga chaqirdilar,mahalliy xalqqa ruslarni Turkistonga ilm-ma'rifat,axloq va madaniyat olib keluvchi,dunyo bilan oshno qiluvchi bir millat sifatida tanishtirdilar.Bular "Ma'rifatparvarlik " ko'pinch amahalliy xalqning o'tmish milliy – diniy an'analarini kamsitish,tanqid qilish hisobiga amalga oshirdi.Bunday tadbirlar Turkistonga adabiy hukmronlik qilish istagi bilan kelganlarga,ularning turmush tarzi va tafakkuriga mehr-muhabbat uyg'otib,"o'ristparast" bir avlodni yetishtirishga xizmat qilar edi.Xullas,o'ristparastlik dastlabki o'zbekcha matbuot namunasi bo'lgan "Turkiston viloyati gazetasi" da rusiya hukumatining tegishli odamlari tomonidan uyushtirilib,rag'batlantirib borildi va u "ilg'or rus madaniyati" sifatida talqin qilindi.Hatto,Furqatni ham 1890 yili Toshkentga kelganda N.Ostroumov o'z gazetasiga jalb qiladi.General-gubernator baron Vrevskiy shoirning salohiyati va shuhratidan targ'ibot uchun foydalanish niyati bilan uni rus zodagonlarining bal bazmiga taklif etadi.Ostroumov shoirga o'tirish haqidagi taassurotlarini yozdirib,gazetasida bostiradi.Unda bunday satrlar bor edi:

So'ngra el o'z joyiga azm etdilar.

Lek mendin ketmish erdi aqlu-hush,

lahza-lahza shavq o'ti aylardi jo'sh.

Qayta ko'rmoq mumkin o'lsaydi debon

Muztarib din sokin o'lsaydi debon.

Al – g'araz ul kecha,ey ahboblar.

Tonggacha uchdi ko'zimdin xoblar.

Dilda bordur,hali ham bu orzu.

Kim,yana ko'rmak qilurman justijo'.

Soat o'n birgacha bazm etdilar.

Tarixchi Mulla Olim umr bo'yi "Turkiston viloyatining gazetasi" da ishlab keldi,o'tmishni qoralab "Turkiston tarixi " nomli asar yozdi.Gazeta tabiiyki,rasmiy xabarlarga,chunonchi oq podshoning farmoishlari,vazirlarning faoliyati ichki Rusiya hayotiga katta e'tibor berdi,o'rni bilan turkiston tarixi,madaniyati hozirgi turmushiga oid maqolalar uyishtirdi,mahalliy qalamkashlarga keng o'rin ajratdi.Lekin bularning hammasi uzoqni ko'zlovchi ruslashtirish siyosatiga bo'ysundirilgan edi.Masalan,gazetaning 1911 yil,45 soni (19 iyun)da bosilgan maqolasini olaylik.Maqola Toshkentning ruslar tomonidan bosib olinish sanasiga bag'ishlangan.Bu sana har yili tantanali nishonlanadi. Shu kuni Toshkentning ruslar yashaydigan yangi shahar qismidan eski shahardagi bosqin paytida o'ldirilgan ruslarning qabri joylashgan Kamolonga bo'lgan ko'chalar obdon tozalanib suvlar sepilib,har ikki tarafga bayroqlar osilib bezatilgan.Minglab mahalliy xalq ko'chaga chiqarilib,katta bayram uyushtirilgan.Turkiston harbiy noibligining genarallari as'asa-yu dabdaba bilan qabriston poyiga gulchanbarlar qo'yganlar.Ularni xotirlashga zambaraklardan to'plar otilgan.Gazeta bayram shodiyonalaridan hikoya qilar ekan,istiloda qatnashgan "urush faxriylari"ning mahalliy xalq bilan "uchrashuv" lariga keng o'rin beradi.Xalqning "ilgariroq dushman ko'zi bilan qaragan",,"endi ushbu odamlarg'a do'st va birodarlik ko'zi bilan qaramoqlari lozim" ligini tya'kidlaydi.Chunki ular "sizlarning obodlik va taraqqiyda bo'lmog'ingizga sabab bo'lgan"deb ko'rsatadi.Yangi avlodan zorlanadi.Chamasi, usuli jadid maktablarida o'qib,dunyo tanib ko'zi ochilayotgan o'z haq-huquqini surushtirayotgan yoshlar yoqmaydi:"Ushbu vaqtda ko'rgan farzandlaringiz

ko'p keyinda qolib, nihoyatda betartib, bebosh va beododb bo'lubdir", -deyishadi "urush faxriylari" mahalla oqsoqollariga.

Turkiston jadid matbuotining shakllanishida umumturk matbuoti, xususan, Kavkaz, Volga bo'yi, Istambulda oyoqqa turib kelayotgan va milliy asosga qurilgan gazeta-jurnallar muhim ro'l o'ynaydi.

Orenburgda chiqqan mashhur "Vaqt" gazetasi umumturkiy matbuotning tarixini ikki davrga bo'ladi: birinchi davrning chegarasini 1911 yil deb belgilaydi. Uningcha birinchi davr uchun xarakterli bo'lgan xususiyat, matbuotning asosan maktab, ta'lim, maorif masalalari bilan shug'ullanganligidir. Gazeta-jurnallar iqtisodiy, ayniqsa siyosiy masalalardan so'z ochmoqqa jur'at etmadilar. 1910 yilning oxirlaridan matbuot an'anaviy ma'rifiy masalalar doirasidan sezilarli darajada tashqari chiqa oldi.

Turkiy xalqlar hayotida gazeta aslida o'tgan asrning o'ttizinchi yillarida kirib keldi. Masalan, Turkiyada chiqqan turkcha "Taqvimi vaqoe" ("Voqealar kalendari") ushbu mamlakatdagina emas, umuman turk dunyosidagi ilk rasmiy gazeta edi. 1860 yildan chiqa boshladi. "Tarjumoni ahvol", ayniqsa, "Tasviri afkor" (1862) dan keyin gazetachilik Turkiyada ommalashib ketdi. Ozarbayjonda nisbatan keyinroq 1875 yilda gazeta chiqa boshladi. Hasan Zardobiyning "Ekinchi" gazetasi bu boradagi ilk qadam edi. O'tgan asr so'ngidagi eng mashhur gazeta Ismoilbek Gasprialining "Tarjimon" i bo'ldi. 1883 yili Bog'chasaroyda dunyoga kelgan bu gazeta birgina Rusiyada emas, umuman dunyoviy barcha qit'alarida yashovchi turkiy xalqlarni bir-birlariga tanitish, ularni madaniy-ma'naviy asosdagi birlikka, hamkorlikka da'vat etish, ayni paytda, milliy ishlarni yo'lga qo'yish borasida yigirma yildan ko'proq vaqt davomida asosiy, balki yagona nashr bo'lib keldi.

Rusiya podshoh hukumati 1905 yil 17 oktyabr manifesti bilan tobe millatlarga ham ma'lum erkinliklar berishga majbur bo'lgan, miliy gazeta va jurnallar chiqa boshlagandan keyin ham "Tarjimon"ning ahamiyati kamaymadi. "Turkiston ma kotibi jadidaning lisoni istiqboliyasi yoinki pro'g'ram lisoniyasidan bir qoch (necha) satr yozalim, - deydi Behbudiy. Umumrusiya musulmonlarinda, Turkistoni Rusiy va Samarqandda usuli savtiya kitoblari turkcha o'laroq vujudga keldi. Jumla muallim va ustozlar, muovinlar turkiy "Tarjimon" tili soyasinda matlab va ma'lumotlarga noil

o'dilar.Turk tili va adabiyoti rusiya musulmonlarini sayd etajakdir.Matbuot bunga shohiddir”.

Vaziyatni o'zgartirish uchun uni oldin oldin anglatish kerak.Buning uchun esa minbar zarur.”Tarjimon” mana shunday zarurat tufayli yuzaga keldi:”Bir bechora faqirni ko'rsak,achinamiz.O'layotgan bechorani ko'rsak,yuragimiz iztirobdan og'ziydi.Hatto, bir hayvonning qiynalishi rahmingizni keltiradi.Lekin bir emas,minglab kishilarning,butun bir xalqning jaholatdan mislsiz qiynalotganini ko'rmaymiz...”

Gazetaning dastlabki sonlaridan birida shunday so'zlar bor edi.BU jadsoratli sado o'sha paytlari juda ham zarur edi.

Ruslashitirish avjida.Itil-Volga bo'yidagi tatarlar orasidan biror mansabdor u yoqda tursin,machitga imom ham missioner N.Ilminskiy ruxsatsiz saylanmaydi.Maktab – madrasa kitoblai-ku birma-bir qo'ldan o'tadi.Turkistonda Ostroumov-to'ra.

Gasprinskiy 1905 yilda o'z gazetasida “Zo'rlik bilan ruslashtirish nazariyasi”(23-son) degan maqola bostirgan edi.Bu maqolada uning fikri qat'iy.Rus xalqi bilan rus hukumatini bir-biridan farqlash kerak.Rus xalqi bizni hech qachon “g'ayri jins” sanamaydi.Buni rus “Papozlari”,chor ma'murlari to'qib chiqargan.Millatning o'zligini ko'rsatadigan xususiyatlaridan biri til va maorifdir.Bu ikkisi bo'lmasa millat mustaqil bo'la olmaydi.Gasprinskiy 1905 yilda yozgan maqolalaridan birida millatning asosi ikkita:Tavhidi til (Til birligi) va tavhidi din (Din birligi) degan edi.

“Til birligi” masalasi bizing hayotimizda hayot-mamot masalasidir va biz bu masalada bir qadam orqaga chekinmaymiz,-yozadi I.Gasprinskiy 1906 yil 18 – dekabrda.

“Tarjimon” umumiy bir milliy gazetadir.Uning tili ham umumiy bir milliy tildir.Yashasan millat!Ham yashar, chunki u tilda va fikrda birlikning zarurligini anglatadi.Til birligi esa adabiyot birligidir.Bu esa o'z navbatida mehnat va harakat birligining asosi o'laroq millatning ozodligini ta'min etajakdir”.

“Tarjimon”ning 1908 yil 13-sonida bosilgan “Til va mas'uliyat” maqolasida ” yana shu masalaga qaytib o'z fikrlarini atroflicha asoslaydi.CHindan ham Rusiyaning turli joylarida istiqomat qiluvchi turkiy xalqlarning tillari,to'g'rirog'I shevalari bir-biridan farq qiladi.Xo'sh bu farq ruslarda yo'qmi?Mehmet Saroy aytganidek,”Turklarning asli bir.Lekin zamon va makon ixtiloflari orasida tafovutlar,shevalar paydo qildi”.Ularni bir-

biriga tanitmoq,yagona va umumiy tarixni anglatmoq faqat milliy emas,insoniy burch hamdir.Bu gapni Ismoilbek 1907 yilgi musulmonlarning jahon kongresida iztirob bilan aytgan edi.Agar shuni amalga oshirmasak,millatning yuziga qarashga haqqimiz yo'q,degan edi.Ikkinchidan har bir millat o'zligini qadrlash bilishi kerak,o'zligi bilan g'ururlana olishi ,iftixor eta bilishi lozim.Shundagina u tenglar aro teng bo'la oladi.

Shundagina u “Havo ” va “g'izo” oladi.Mamlakatimizda kechayotgan bugunги jarayonlar bunga dalil.

1904 yili Avloniy Mirobodda usuli jadid maktabi ochadi.1907 yilda o'z hovlisida “Shuhrat” gazetasini chiqra boshlaydi.

Gazetaning yo'li ayon bo'lishi bilan do'stidan –dushmani ko'paydi.Natijada 10-soni chiqib bekildi.So'nggi 14 fevral o'ninchi sonida “Dano'si namima” (Chaqma-chaqarlik) sarlavhasi bilan idoraning bir xabari bosilgan.Unda shunday gaplar bor:

“Eshitilmish xabarlarga qarag'onda o'z musulmonlarimizdan ba'zan “da'noschi ” nammomlar paydo bo'lib,gazetamizdan “начальство” g'a “donus” qilmoq fikrida yelka qilg'on emishlar...

Gazetamizning maslagi milliy,betaraf, siyosiy o'lub ,”умэренно- прогрессивная политическая” gazetadir.Yozg'on maqolalarimiz ham ushbu maslagimiz bo'lg'on e'tidol va haqqoniyat doirasida o'lub,nozir va sensuralar tarafidan haqlik uzra tarjima qilinub,tegishli mahkamalarda ko'rinub,turulibdur.Shul sababli “начальство” ning sizni “dano's” larga hech bir ehtiyoji yo'qdur.

Gazetaning yopilishiga qaraganda,bu “dano's”larga ehtiyoj bo'lgan ko'rinadi, va ehtimolki, ular gazetaning taqdirini hal qilganlar.

“Taraqqiy” gazetasi

Demokratik yo'nalishdagi o'zbek milliy matbuotining namunalari 1905-1907 yillarda yuz bergan birinchi rus inqilobi davrida tashkil topdi.”Taraqqiy” ning adabiyotlardagi talqini masalasi xususida ham fikr bildirmoqlik m ustaqil mulohazalar uchun foydadan holi emas.Turkistionda nashr etilgan ilk gazeta “Taraqqiy” haqida shu paytgacha bir qator tadqiqotlar yaratildi.

“Turkistionda matbuotning na xolda, na darajada o'ldig'ini imkon boricha ko'rsatarmiz” deb yozgan ilk matbuot tadqiqotchisi Cho'lpondir:”Taraqqiy “–taraqqiyparvar bir gazeta

bo'lib ,muharriri ichki rusiya tatarlaridan Ismoil Obidiy Yo'ldosh edi.Oktyabr inqilobidan so'ngra bu kishi so'l sotsiolist revolyutsioner firqasi vakili o'laroq dohiliya qo'misori mansabinda bo'lindi.Ikki oy qadar davom etgandan so'ngra hukumast tarafidan bekitildi”.

Bu mavzuda,shuningdek Abdulla Avloniyning “Burung'i o'zbek vaqtli matbuptining tarixi” axborotnomasini ham dalil qilib ko'rsatish mumkin.”Taraqqiy” gazetasi tez fursatda shunday shuhrat qozondiki,hatto gazeta muharriri bo'lg'on Ismoil Obidiyga Taraqqiy ismi berildi.Hozirgacha xalq Ismoil Obidiyning ismini Taraqqiy deb yuritadilar.Bu gazeta elning eng suyub o'qiydirg'on bir gazetasi bo'ladi.Bu gazeta o'sha zamon musulmon gazetalari ichinda eng so'li bo'lib,hukumat va uning ma'murlarig'a qarshi hujum uyushtirildi.

Bu gazeta yerlik yosh yozuvchilarg'a sahifalaridan keng o'rin berdi.Istibdod hukumatining favqulodda saqlash qo'li bilan bu gazeta o'ldirildi.Xalq oziqlanib qolib uzoq vaqt jimjitlik hukum surdi”.

Gazeta eski usul maktablarida bo'lmagan matematika,tarix,geografiya singari fanlarni yangi usul maktablarining o'quv dasturiga kiritishni taqib qilar edi.Bu yangilikning maqsadi,ishlab chiqarish kapitaliga malakali kadrllar tayyorlashdan iborat edi.Gazeta bu g'oyalarni chor hukumati bilan kelishuvda o'tkazishga harakat qilsada konstitutsion monarxiyani yoqlab chiqdi.”Taraqqiy” haqida yaratilgan tadqiqot ishlaridan Solix Qosimovning “Guliston ” jurnalining 1979 yil 9-10-sonlarida e'lon qilingan “Kurash sahifalari” maqolasidir.Shuningdek,A.Jalolov va H.O'zganboyevlarning “O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining taraqqiyotida vaqtli matbuotining o'rni” kitobida va “O'zbek tili va adabiyoti ” jurnalining 1986 yil 3-sonidagi “Taraqqiy va adabiy hayot” maqolasida ham “Taraqqiy” gazetasining faoliyati tahlil qilinadi.Bu tadqiqot va izlanishlarda ham vaqtli matbuotining adabiyot rivojiga qo'shgan hissasi ta'kidlanib ijtimoiy-siyosiy hayotga matbuotning ta'siri masalalari o'z bahosini olgandir.

“Taraqqiy va adabiy hayot” maqolasida “Turkiston viloyatining gazetida “ “Taraqqiy” ning ilk soni chiqishi munosabati bilan hukumat nashrning unga nisbatan tutgan yo'li keng yoritilgan.

“Chor hukumati Turkistonda milliy matbuot va adabiyotning rivojiga mone’lik ko’rsatdi, mahalliy shoir va yozuvchilar “O’zbekcha abir risola” nashr ettirmoqchi bo’lsaklar, chorizmning o’lkadagi matbuot taftish ishlari turli bema’ni bahonalarni ro’kach qilib, ularni chop qilishga tish-tirnoqlari bilan qarshilik qildilar. Bular haqida “Taraqqiy” afsus bilan shunday yozadi: “Chunonchi mujsulmoncha bir kichkina risola bosdurmoqchi bo’lsak, nazoratning qizil qalami bila sahifalar qizil bo’lib, ortuqli, turtuqli buzulub, qo’limizga qaytur edi”...

Gazetaning yozganlari zamirida katta hayotiy haqiqat bor.

Chor hukumatining Turkistondagi ma’murlari “Hur fikr sharpasi” sezilgan har bir asarni chop ettirishga qarshilik ko’rsatar edilar.

“Taraqqiy” gazetasi chorizmning Turkiston mehnatkashlari o’rtasida “Haqlig” tarqamasul deb”, “Har qanday milliy vaqtli matbuotning nashr ettirishiga katta qarshilik qilib kelganini qo’rqmay fosh qiladi: “Musulmonlar ichina haqlig’ tarqalmasun” deb gazeta va jurnallar nashr etmakka hech fursat berilmas erdi.”

“Taraqqiy” chon hukumatining Turkiston xalqlarini jaholat va qorong’ulikda saqlashga intilib, mahalliy xalq tiliga bironta kunnoma va badiiy asar nashr etishga fursat bermaganligini ro’y-ros yozish bilan birga uning tup sabablartini ham aytib o’tadi.

Chunki vaqtli matbuot jahon ko’z gusidir. Mamlakatda bo’layotgan har bir voqea ozmi-ko’pmi, albatta vaqtli matbuotda aks etar edi.

“Taraqqiy” chop etila boshlagandan buyon birinchi kundan to yopib qo’yilgunga qadar haqiqiy ma’noda taraqqiyparvar gazeta bo’ldi. U mahalliy xalq manfaati yo’lida faoliyat ko’rsatgan milliy gazeta edi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko’ra “Taraqqiy” gazetasi tashkil topgan sana-27 iyun “Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni” deb e’lon qilindi.

“Taraqqiy”ning ilk soni 14-iyun, yangi hisob bilan 27-iyun kuni chiqqan. 20 soniga yetganda musodara qilinib, nashr etish to’xtatilgan. Uning ikki oy-u bir hafta chiqqanligi haqida ma’lumot bor. Gazetaning mavjud sonlari: 1-soni 14 iyun, 3-soni 22 iyun, 9-soni 16 iyul, 10-soni 20 iyul, 16-soni 9 avgust, 17-soni 12 avgustda chiqqanligi nazarda tutilsa, darhaqiqat gazeta 20 avgustga qadar yana ikki oy-u bir hafta nashr qilinganligini tasdiqlash mumkin.

”Taraqqiy”da bosilgan maqola va xabarlarining mazmuni asosan ilg’or g’oyalarni tarqatish,dini islomning mustamkachilik tomonidan kamsitilayotganiga qarshi kurashish,milliy mustaqillikka erishish yo’llarini izlashdan iborat.

1923-yildan Behbudiy matbuot ishlari bilan shug’ullanadi.Apředdan “Samarqand” gazetasini chiqara boshlaydi.Gazeta turkiy va forsiy tillarda,xaftada ikki marta,dastlab ikki,so’ng to’rt sahifada chop etilgan.45 ta sonidan keyin moddiy tanqislik tufayli chiqishi to’xtagan.O’sha yilning 20 avgustidan u “Oyna’ jurnalini chiqara boshlaydi.Bu suratli haftalik majalla asosan o’zbek tilida bo’lib,unda ixcham forsiy she’rlar,maqolalar,ruscha e’lonlar ham berilib borilardi...”Boshda haftada bir marta va ikkinchi yildan e’tiboran 15 kunda bir qatla chiqib,yigirma oy chamasidavom qildi...Kafkaaz,tataiston,Eron,Afg’oniston,Hindiston va Turkiyagacha tarqalar edi...jadidlarning sevikli jurnallari edi.Shuning uchun ular tomonidan hurmatlanadi,sevilib o’qildi”,deb yozgan edi Ziyoy Said.Jurnal redaksiyasi muharrirning Yangi shahardagi uyida (Reshetnikov 3;hozir Mirsaid baraka,1,aloqa xodimlari kasaba uyushmalarining viloyat tashkiloti binosi) joylashgan.

Behbudiy shu yillari nashr ishlari bilan qizg’in shug’ullandi.”nashriyoti Behbudiya” nomi bilan o’z xususiy nashriyatini ochdi.Fitratning “Bayonoti sayyohi hindi” asarini 1913 yilda ruschaga tarjima qildirib,nashr etdi.Turkiston xaritasini tuzib bosmadan chiqardi,kutubxonani yo’lga qo’ydi.O’sha davr vaqtli matbuotida “Behbudiy kutubxonasi” haqidagi xabarlarga tez-tez duch kelamiz.

1914-yilning 29-mayida Behbudiy ikkinchi bor arab mamlakatlartiga sayohatga otlanadi.

Muallif sayohati arafasidagi kayfiyatini shunday ifodalaydi:”7 sanadan beri ikki daf’a Buxoro va bir daf’a Farg’onani ziyoratidan boshqa safarga chiqqanim yo’q edi.Azbaski,tiriklik kasalig’a mubtalolik,ro’zg’or qaydig’a giriftorlik sayohat ne’matidan mahrum etar.Yetti yillik xonashinlik,dilgarlik tarafdin aloyiqi ro’zg’or,tijorat va 7-8 risolalar tahrir va nashri,dorulqazo ishlari,xususan,bir sanadan beri sobiq “Samarqand” jaridasi va hozirgi “Oyna ” irodasining ishlari ruhan va jisman zaif etdi.A’zou havoslarg’a kasolat ”paydo bo’ldi.Singir (asab) ...g’ayri muntazam

ishlaydur. Atibbo istirohat va sayohatg'a mashvarat berarlar. tabiat u qadar noqobil va buzuqki, sayohatdan ham nafrat etar, istamaz.

Shunga qaramasdan, safarga chiqmasa bo'lmaydi. Avvalo 9, "Kutubxonayi Behbudiy" uchun Istanbul, Misr, Qrim, Kavkaz, Qozon, Rusiya va xorijlarning manzaralari, imoratlari, kishilarning suratlari, turli-tuman qolip (klishe)lar va yana boshqa judako'p narsalar kerak. Xullas, bormasa bo'lmaydi. Mashrut: Kavkaz, Qrim, Istanbul, Yunoniston, bayrut, Misr Qohirasi va yanas orqaga- Istanbulga qaytib, temir yo'l bilan Bulg'oriston, Avstriya va Berlin orqali Rusiyaga, undan Turkistonga kelish. Muddati iki oy. Birinchi iyunga qolmay yo'lga tushish kerak. Behbudiy Peterburgda bo'ladigan Milliy majlis maslahatiga taklif qilingan edi. Savollarga javobini yozib yuboradi, uzrini aytadi. Xullas, 29-mayda yo'lga tushadi. Poyezdga o'tirib Bayramali prqqali Ashg'abotga o'tadi. Krasnovodskdan poroxod bilan Bokuga boradi. 2-iyunda Mineralniye Vodi-Kislovodsk-Pyatigorsk, Jelevnovodsk-Rostov-Odessani kezib, 8 iyunda Istanbulga kirib keladi. Undan Adirnafga sayohat qiladi. Yana Istanbulga qaytib, 21 iyunda suv yo'li bilan Quddusga yo'l oladi. Bayrut, Yofa, Xalil ar-Raxmon, Port Said, Shom shaharlarin I tomosha qiladi. sayohat iyulning boshlarida ham davom etadi...

Sayohat xotiralari har jihatdan g'oyat muhim bo'lib, Behbudiy ularni o'z jurnali "Oyna" ning 1914 yil sonlarida mazkur nom ostida peshma-pesh berib boradi (hozircha 18 sonda uchratdik).

"Samarqand" gazetasi

"Samarqand" gazetasi Samarqand taraqqiyparvar ma'rifatchilarning to'ng'ich gazetasi bo'lib, u 1913 yil aprel oyida Mahmudxo'ja Behbudiyning mas'ul muharrirligi ostida chiqa boshlagan. Tepasida: "Mahalliy, turkiy va forsiy o'rta shevada ilm-fan adabiy tijorat, hunar va zirotning, Rusiya ahvoli va madanioyati xorijiy mamlakatlari holidan va olami islom tirikligidan yozuvchi madaniyat musavvir tasviriy sur'atli jadidadir". deyilgan (Ziyo Said axborotiga ko'ra).

Gazeta haftada ikki marta ikki sahifada chiqqan, Shuningdek u 400-600 nusxadan iborat bo'lgan. Tili sof o'zbekcha bo'lmagan, har bir sonida tojikcha she'r va maqolalar ham bosilib turgan.

Biroq “samarqand” gazetasi moddiy tomondan qiynalib 45 sonida to’xtashga majbur bo’lgan. Mirzohid Mirvohidov (Qo’qondan), Akobir Shomansurov (Samarqanddan), ikki yuz mushtariy besh so’m iona to’plab, yana nashr qildirishni so’rab muharrirga telegramma bergan bo’lsalar ham gazetani qayta nashr etish mumkin bo’lmagan.

Gazetaga Saidrizo, Hoji Muin, Rojiy, Siddiqiy, Nurmuhammad bek o’g’li, Nusratullo Milliy, Mulla IBrohim Saidkamol o’g’li va boshqalar yozib turganlar.

“Samarqand” gazetasining bosilish jarayonida unga ikki marta ruxsat olingan bo’lib, birinchisi 1913 yil 10 aprelda beriladi va shundan so’ng gazeta chiqa boshlaydi.

Shu bilan birga Behbudiy negadir 1913 yil 23 may kuni Samarqand viloyati harbiy gubernatoridan “Yangi Samarqand” (“Samarqandi nav”-“Noviye Samarqand”) nomli gazeta chiqarishga ruxsat berishini so’rab yana ariza beradi.

“Samarqand” uch tilda “o’zbekcha, ruscha va forsha” chiqib turgan. Bu haqda Behbudiy gazetaning 36 sonida bosilgan “Na uchun iltifot etmaydurlar?” maqolasida shunday yozadi.

“Samarqand” jaridiyasi o’zbek, forsiy, rus tillarida va Turkistonning o’rta shevasida ta’ sis etilib edi. Bundan maqsad shu ediki, Rusiya kulturi ilmi, hunari va sanoatig’a oshno bo’lishlariga ojizona tashviq etmoqdin iboratdir. Maktab bo’lsun, madrasa bo’lsun, isloh va taraqqiyotg’a yordam uchun xalqni da’vat qilmoq edi. Fasid urf va botil rasmlarini, yomon odatlarni sha’rann islohiga qo’shish etmoq edi.

Behbudiy “Samarqand” da butun Turkiston ziyolilari faol ishtirok etishni so’radi va gazetaning ilk sonida yozuvchilarga murojaat qildiki, bu murojaat uning oxirgi sonigacha birinchi sahifasidan tushmadi: “Islomiyaning saodati va salohiyatiga musulmonlarni madaniyat va fgununi zamonadan nafratlanmoqlari uchun yozuilgan mahalliy turkiy va forsiy tillarda maqola va ash’or qabul bo’lib, ammo jaridaga yozilishi idora ixtiyoridadur”.

Bu murojaat gazetaning deyarli har soniga qaramasdan, joylarda maqola va xabarlar ko’p kelmaydi. Bundan Behbudiy nola chekadi va kuyinib “Na uchun ittifot etmaydurlar?” degan maqola yozadi.

“Samarqand” gazetasining yopilishi haqida Abdulla Avloniy “Mushtariysizlik, moddiy tanglik orqasida to’xtatildi”, desa S. Ayniy komissiya xulosasida (Behbudiy yo’qolganiga

bir yil bo'lganidan keyin unga a'za ochish uchun tuzilgan komissiya):"45nchi raqam chiqqanidan keyin oning o'rniga "Oyina" majallisini chiqarish maslahat ko'rib,to'xtatildi".

Shunday qilib,"Samarqand" gazetasi o'rniga 1913 yil 20 avgustdan "Oyina" nashr etila boshlangan.

"Oyina" jurnali(1913 yil 20 avgust-1915 yil 15 iyun)

O'zbek milliy matbuotida jurnalchilikka asos slogan noshir va muharrir Mahmudxo'ja Behbudiydir.Uning "Oyina" jurnali nafaqat Turkistonda,shuningdek Rossiyaning musulmonlar yashaydigan boshqa o'lkalarida ham mashhur bo'lgan.Mahmudxo'ja Behbudiy tashabbusi bilan ma'rifatparvarlarning ilk jurnali "Oyina" chiqa boshladi.U o'zining baland saviyasi dolzarbligi,mavzu rang-barangligi bilan tez orada mahalliy ziyolilar orasida katta obro' qozondi.

Mhmudxo'ja Behbudiy nomi bilan bog'liq ushbu jurnal tashkil topgan yiliyoq Turkistondagi mavjud urf-odatlar,yangicha jadid maktablari,o'zgarishlarini o'rganayotgan elshunos missioner G.Andreev Behbudiy va uning oilasi haqida ketma-ket maqola yozadi.Birinchi maqolada u Behbudiy bilan suhbat qurib,unga (турецкий таграм) sifatida nom qo'yadi.Ikkinchi maqolasida esa "Oyina" ning 1915 yil (53) seonini o'z nuqtai nazari bilan batafsil sharhlaydi va "zerikarli" maqolalarga to'la jurnal ekanligini aytadi.Qisqacha muallif Behbudiyning publisistik hamda muharrirlik faoliyatiga past nazar bilan qaraganligini anglash mumkin.Missionerlardan o'zgacha muomala kutish ham qiyin edi,chunki ular o'zlarini Turkistinga "madaniyat keltirgan"insonlarmiz deb o'ylashadi.

Shuningdek,"Samarqand" gazetasi va "Oyina" nomli jurnal to'g'risida eng so'nggi ma'lumotlar O'zbekistonning yangi tarixiy markazi,O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarix instituti tomonidan chop etilgan "Jadidchilik:islohot,yangilanish,mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash" davriy tio'plamida ham ko'rish mumki.

Jurnalning nomlanishi muqovada – arab,o'zbek,fors va rus tilida yozilganligini ko'rish mumkin,yana "Mir'ot","Ko'zgu","Oyina" va "Zerkalo".

Behbudiy Samarqand viloyat harbiy gubernatorga yozgan arzida jurnalni 3 – rus, o'zbek va tojik tillarida chiqarishga izn so'ragan.

“Oyina” ning ilk soni 1913 yil 20 avgust kuni “Samarqand” gazetasining 37 soni bilan barobar chop etilgan. Bu haqda Samarqandda “Arzi tuhfa” sarlavhasi ostida shunday so'zlarni o'qish mumkin:

“Samarqand” jadidasining barcha mushtariylarig'a iydi said munosabati-la ushbu raqam ila “Oyina” tajallasi “Samarqand” idorasi tarafidan ojizona tuhfa yuborildi. Qabuli marjudir”.

“Oyina” ning chiqqan sonlari haqida eng birinchi ma'lumotni Sadridin Ayniy yozganligi uchun undan Iqtibos keltiramiz: “Oyina majallisining bir necha raqami 1333 yil shovvol oyinda (1913 avgust) chiqib, 1333 yil shobon 15 ig'acha davom qilg'on (1915 yil 15 iyun). Bu muddatda 68-raqamda 1720 sahifalik “Oyina” chiqqon. Ziyo Saidda ham huddi shunday ma'lumotlar bor.

“Oyina” haqiqatdan o'z nomiga yarasha ish olib bordi. Bo'lib o'tgan va sodir bo'layotgan, shuningdek kutilayotgan voqea – hodisalarga o'z fikrini doim bildirib turdi. Muharrir jurnalga maqola yozishlarini millat ziyolilaridan so'rab turdi. Nashr tahlamlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, unda bir talay mualliflar qatnashganligini ko'ramiz. Xususan, Abdurauf Fitrat, Siddiqiy, Hoji Min, Akobir Shomansur, Muhammad Said, Saidrizo Alizoda, Said Ahmad Vasliy, Tavallo, Sadridin Ayniy, Hakim Buxoriy, Niyoziy, Rajabzodalar qalamiga mansub qator maqolalar, she'rlar “Oyina” ning ommalashuviga sabab bo'lgan. BUnda Behbudiyning ham eng sara maqolalari chop etilgan: “Ikki emas to'rt til lozim” (1-son), “Mayda qarz, mulki kredit” (1-son), “Tutun tamoku” (1-2-son), “Millatni kim isloh etadi” (12-son), “Yoshlarga murojaat” (21-son), “Sart so'zi majhuldir” (22, 23, 25, 26-sonlar), “Teatr nadur?” (29-son), “Tanqid saralamoqdur” (31-son), “Ismoilbek hazratlari ila suhbat (49-son) kabi tahlilli maqolalari, tarix va geografiyaga oid “Sherdor madrasasi” (1-son) “Ul;ug'bek rasadxonasi” (3-4-5-6-7-8-9-sonlar), “Tarix va jug'rofiya” (27-28 sonlar) kabi maqolalar shular jumlasidandir.

“Oyina” da adabiy tanqid ham salmoqli o'rin tutadi. Jurnalning bu boradagi ahamiyati yana shundaki, Alisher Navoiydan keyingi bir necha asrlik sukunatdan so'ng bu

sohaning xos xususiyatlarini tayin etib adabiyotda uning teng huquqligi masalasini o'rtaga qo'ydi.

Jurnalning 1914 yil 27 sonida uning muharriri Behbudiyning "Tandiq-saralamoqdur" deb nomlangan maqolasi chop etiladi.

"Oyina" jurnali ham o'ziga xos milliy xususiyatlarga ega, uning birinchi sonidan boshlangan turkiston tarixiga, bobolar qoldirgan me'ros'larga e'tibor uning oxirgi sonlarigacha sezilib turadi. Masalan, uning birinchi sonining birinchi sashifasida Sherdor madrasasining viqorli surati, "Turkiston" sarlavhali bosh maqola va undan so'ng Sherdor madrasasining tarixi yozilgan. Ikkinchi sonida "Ulug'bek rasadxonasi" haqida muharrir maqolasi bosilgan. Shunga o'xshash maqolalar davomiy qilib berilganki, bu mushtariyning o'z millati, bobolariga nisbatan mehri uyg'onishiga, faxrlanishiga kimlarning avlodi ekanligini anglashiga sabab bo'lgan. Behbudiy jurnalidagi bu ohang davlatimiz mustaqillikka erishgach, bizning jurnallarimuizga ham ko'chdi.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'zbek matbuotida jurnalchilikka asos solgan muharrir hamdir. "Oyina" uning jurnali milliy uyg'onish jarchisi sifatida maydonga chiqdi.

Quyida Tavalloning Samarqandda chiqqan "Oyina" majallisi haqqida she'rini keltiramiz:

Ko'rguz yoshurma yuzda g'ubor, ko'zgu,
Har kim umid bilan sanga boqar, ko'zgu.
Qildi tamom millat jomi din ila rag'bat,
Doim tilar bu niyat top e'tibor, ko'zgu.
Topding bu kun mahorat bid'atni ayla g'orat,
Biz aylaylik ziyorat, shayxi g'ubor ko'zgu.
Bir ism sanga mir'ot, ouina o'ldi bir ot,
Dunyoda ko'rma ofat, ey obdor ko'zgu.
Ruslarcha "зеркало" san bir cheti namosan,
Cho'x sohibi jilosan, bo'l noydor ko'zgu.
Behbudiy o'ldi qodir nashri uchun muboshir.
Har kim qo'la tutubdir o'zni ko'rara ko'zgu.

“Al -isloh” jurnali (1995 yil 14 yanvar 1918 yil mart)

“Al-isloh” – jurnali jadidchilik harakatining ilg’or fikrli ulamolarga yaqin o’ng qanoti vakillari tomonidan chop etildi.”Al-isloh” da diniy islohatchilik masalalari:Abdurahim Sayyoh,Vasliy,Olimjon To’ra,Sadriddin A’lam,Hamza Hakimzoda,Fazlulvahobqori va boshqalardir.

Ushbu jurnal jadidlar dunyoqarashiga yaqin materiallar berib bordi.Unda Sayyoh,Sadriddinxon,Hamza,Muftiyzodalar faol ishtirok etishdi.1918 yilda 5-soni chiqib,so’ngra to’xtadi.

1917 yil fevral oyida burjua-demokratik revolyutsiyasi yuz bergan kunlarda Hamzaning nomi bilan bog’liq “Kengash” va “Hurriyat” nomli jurnallar paydo bo’ldi.Qo’qonlik mualliflar ushbu jurnalda xat-xabarlar bilan ishtirok etishgan.Qo’qonda nashr qilingan ushbu jurnalning 6 soni mavjud.

Biroq ma’rifatparvarlarning bu nashrlardagi ishtiroki ham qisqa bo’ldi.Chunonchi,Hamza:”Burjua hukumatining “Hurriyat” kalomi,so’z matbuot va ijod erkinligi haqidagi safsatalari quruq gap ekanligini tushundi va u hukumatni “yangidan bo’lgan istibdod” deb atadi”.

1917 yil oktabr to’ntarishidan so’ng yurtimiz madaniy hayotida savodsizlikni tugatish,xotin-qizlar ozodligi,yangi alifboga o’tish,yangi kishilarni tarbiyalash masalalari maxsus nashr etilgan jurnallar faoliyati bilan uzviy ravishda bog’liqdir.Ba’zan bu masalalarning barchasini amalgam oshirishda o’lkamizda chiqqan jurnallar Rossiyadagi markaziy rus jurnallariga taqlid qilib,katta ma’naviy xatolikka yo’l qo’yganliklarining guvohi bo’lasiz.Ayniqsa bu o’rinda “Xudosizlar” jurnali markaziy “Ateist” va “Antireligioznik” kabi faoliyat ko’rsatganligi ish ko’rganligi achinarli holdir. Ma’rifatparvarlarning matbuot organlari “Al-isloh” va “Al-izoh” 1918 yilning bahorida barham topdi.1917 yil oktyabr to’ntarishidan so’ng yagona partiya g’oyasiga itoat etuvchi va shu g’oyani Turkistonda targ’ib va tashviq etuvchi matbuot nashrlari paydo bo’ldi.”Inqilob”,”Yangi yo’l”,”Yer yuzi”,”Alanga”,”Maorif va o’qitg’uvchi”,”Bilim o’chog’i” kabi adabiy-badiiy jurnallar shu tarzda yuzaga keldi.Bu jurnallar ma’lum

ma'noda o'z milliy adabiyotimiz rivojiga, madaniyatimizga xizmat qilishdan ko'ra 74 yil kommunistik mafkura g'oyalari sadoqat bilan xizmat qildi.

Jurnallarda ko'zga ko'ringan davlat arboblari Akmal Ikromov, Yo'ldosh Ohunboboyev, Fayzulla Xo'jayevlarning maqolalari bosilib turdi. Tahrir hay'ati a'zolari va faol muhbirleri esa Shokir Sulaymonov, Abdulla Avloniy, Javod Hoshimiy, Manzura Sobirova, Hamida Tojiyeva, Maryam Sariqulova, Tojixon Shodiyeva, Fotima Niyozova va boshqalardan iborat edi.

Xullas oktyabr to'ntarishigacha Turkiston mahalliy aholisi orasida tabiiy bir necha oqimlar mavjud bo'ldi. Biri – taraqqiyparvar yoshlar, ikkinchisi-eski dunyo tarafdorlari edi. Bu ikki oqimning birinchisi siyosiy bir maslakka ega bo'lmasada, kelgusida islohotlar ro'y berishiga ko'zi yetardi. Shu boisdan ham ular ilm ko'zini ochib turli ilmiy madaniy, ma'naviy-ma'rifiy yo'llar bilan kelajak uchun zamin hozirlashar edi. Bu borada ayniqsa vaqtli matbuotning, xususan ilg'or fikrli gazetalar ijtimoiy-siyosiy, adabiy, badiiy jurnallarning o'rni va roli beqiyos bo'lganligini alohida ta'kidlash mumkin.

Demak chorizm bosqini davrida "Русский Туркестан" kabi gazeta va jurnallar sahifalarida (o'lkada chiqqan gazetaning nomigina emas, balki, Turkiston yeri kimga qarashli ekanligini ham bildiradi). Turkistonliklarning ongiga itoatgo'ylik bilan oq podshoga bo'ysundirish g'oyalari singdirilgan.

Ziyo Said fevral inqilobidan so'ng chiqqan jurnallarga davr nuqtai nazaridan shunday baho beradi:

"Kengash". Ikki haftada bir marta chiqadigan jurnal. 1917 yil mart oxirlarida Qo'qonda chiqa boshladi. O'zidagi aniq tarixi: "1335 yil 15 jumodiulavval" deyilgan. Bolalarning daftari o'lchivida 8 bet, toshbosmada chiqar edi.

Muharriri: Hamza Hakimzoda Niyoziy. Noshiri: Qo'qon muallimlaridan bir nechtasi. Ikki-uch sondan keyin muharriri ham noshiri Rahimjon hoji Tursun Muhammad o'g'li bo'ldi. Bu jurnal: til va yo'l-yo'riq to'g'risida hech narsa bera olmadi, besh-olti son chiqib yotdi. 400 dona bosilar edi.

"Xurriyat". Yuqorida aytilgan kengashning ikkinchi nusxasi. 1917 yil avgust oylaridan chiqa boshladi. Muharriri va noshiri Mahmudxo'ja Rizoiy. 4-soncha chiqib yotib qoldi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqorida aytib o'tganimizdek Turkiston ma'rifatchi jadidchi adiblarimiz o'z faoliyati davomida matbuot ishlari bilan ham shug'ullanib, ozmi-ko'pmi xalqqa ilm-ma'rifat yetkazishda o'zlarining hissasini qo'shganliklarini alohida e'tirof etib o'tdik.

Bu davr ilg'or publisistlarining asosiy xususiyati milliy ongni uyg'otishga chorlashda, buning uchun hayotdagi barcha masalalarni ishga solishga da'vat etishda, el-yurtni, sarmoyadorlarni, hatto diniy arboblarni bir jon, bir tan bo'lib millat ravnaqi yo'lida birlashishga xizmat qilishga chaqirishga, va maqsadga e'tiborsiz qaraganlarni keskin talqin qilishda ko'rindi. Bu niyatni Fitrat 1917 yilning iyunida yozgan "Ittifoq etaylik" maqolasida quyidagicha muxtasar ifodalaydi: "...Qo'lni-qo'lga beraylik, haq yo'linda, din yo'linda, vatan yo'linda, millat yo'linda jadidimiz, qadimimiz, mullamiz, boyimiz va avomimiz bir yerga to'planaylik, bir-birimizga ko'makchi va madadkor bo'laylik".

Bu fikrlar mustaqilligimizni mustahkamlash uchun hozirgi kunda ham bizga hamohang bo'la oladi.

Qaysi gazeta yoki jurnalda qanday mazmun va maqsad, qanday g'oya va ibrat haqida maqola yozilmasin, vatan, millat haqida bo'ladimi, ma'rifatparvarlik va taraqqiyotga oid bo'ladimi, milliy ozodlik harakati yoxud inqilobiy kurashga bag'ishlanadimi, birinchi jahon urushi yoki mardikorlik voqealariga doir bo'ladimi - bu asarlar zamirini, mohiyat e'tibori bilan xalqni uyg'otish yangicha fikrlashga chorlash, jur'at va fidokorlikka targ'ib etish tashkil qildi. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek bu jarayonda Behbudiy, Fitrat, Avloniy, Cho'lpon, Mirmuhsin Shermuhammedov kabi xalqning ma'rifatli adiblari o'zlarining sa'y harakatlari bilan ommani ma'rifatli qilishga urinishdi. Bu davrda o'zbek publisistikasining shakllanish davri bvo'shlandi va bu publisistika ilk qadamlari bilanoq millatparvarlik manfaatlari yo'lida jonbozlik ko'rsatdi va bu kelajak avlodga katta adabiy me'ros sifatida bugungi kun matbuotchiligiga ham zamin bo'ldi.

Yakuniy xulosa shuki, Turkiston vaqtli matbuot tarixi vatanimizning yaqin o'tmishidagi ma'rifat va jaholat, ozodlik va yovuzlik, jaholat va qabohat kurashlari tarixi ko'zgu'sidir. U O'zbekiston yangi tarixining uzviy sahifasi bo'lib qoldi.

Foydalanilga adabiyotlar ro'yxati:

1. Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug'bek Dolimov, Shuhrat Rizayev, Sunnat Ahmedov "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" Toshkent. Ma'naviyat 2009 y.
2. Begali Qosimov "O'zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi" Toshkent 2008 y.
3. "Turkiston matbuoti tarixi" (1870-1917 yillar). Tuzuvchi: Nazira Abdumajidovna Abduazizova. "Akademiya" nashriyoti. Toshkent 2010 y.
4. Begali Qosimov "Milliy uyg'onish" Toshkent. Ma'naviyat. 2002 y.